

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhammadov</b> Ilmsizlarni tarix haqiqatlari fosh etadi.....	8
PEDAGOGIKA	
<b>B.Sh.Shermuhammadov, O.R.Raxmatov</b> Mediasavodxonlik vositasida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining informatsion madaniyatini rivojlantirish mazmuni.....	10
<b>Ким Владимир</b> Эффективность внедрения акцентированной методики по развитию физического статуса юных баскетболистов .....	15
<b>А.Н.Амонов</b> Научное обоснование актуальности проблемы развития скорости перемещения и точности ударов в настольном теннисе с самого раннего возраста. ....	20
<b>N.O.Saidova, D.M.Axmadjonova</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhlarida bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirishning hozirgi holati.....	25
<b>O.Q.Xasanova</b> Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida xatolarni tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning ahamiyati .....	28
<b>M.E.Abdullayev</b> O'quvchilarda milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda etnopedagogik qadriyatlarining tarbiyaviy imkoniyatlari .....	34
<b>B.Sh.Turg'unboyev</b> Bo'lajak o'qituvchilarning media kompetentsiyasini shakllantirishga nazariy va uslubiy yondashuvlar .....	37
<b>X.A.Kadirova</b> Tibbiyot oliygohlarida tibbiy biologiya va umumiy genetika fanlarini o'qitishda foydalaniladigan interfaol ta'lim metodlari.....	43
<b>S.T.Xakimov, S.Q.Xudoyqulov</b> Maktab o'quvchilarining kun davomidagi harakat faolligining me'yori .....	49
<b>D.K.Karimov</b> Jismoniy madaniyat yo'nalishi talabalarida egiluvchanlikni rivojlantirish usullari samaraliligini o'rganish.....	53
<b>K.F.Nazarova</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqiy kompetensiyani rivojlantirish jarayonini loyihalashning pedagogik-psixologiya xususiyatlari.....	57
<b>J.Dj.Sultanov</b> Harbiy-siyosiy sohada axborot tahdidlarining oldini olish masalalari.....	61
<b>X.X.Xasanbayev</b> Mudofaa tizimida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularni malakasini oshirish mexanizmi.....	64
<b>O'.R.Maxmudov</b> O'zbekiston harbiy ta'lim muassasalari harbiy pedagoglarining professional harbiy pedagog bo'lib shakllanishidagi muammolar va ularning yechimi.....	68
<b>I.Y.Masharipov</b> Bo'lajak harbiy pedagoglarni harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik omili.....	71
<b>F.O.Qo'ysinova</b> Mafkuraviy va ma'naviy tahdidlar bilan bog'liq jarayonlarda radikalizm muammosi .....	75
<b>R.X.Ibragimov</b> Kasb-hunar maktablarida fizika fanini o'rganishda o'quvchilar o'rtasida eksperimental ko'nikmalarni shakllantirish .....	78
<b>A.Tuychiyev</b> Ta'lim tizimida xorijiy tajribadan foydalanish va ta'lim texnologiyalarining o'ziga xos jihatlari.....	82

**BO'LAJAK HARBIY PEDAGOGLARNI HARBIY-KASBIY KOMPETENTLIGINI  
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ ВОЕННО-ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ  
КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ВОЕННЫХ ПЕДАГОГОВ****THE PEDAGOGICAL FACTOR OF THE FORMATION OF MILITARY PROFESSIONAL  
COMPETENCE OF FUTURE MILITARY TEACHERS****Masharipov Ibrat Yangiboyevich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi**Annotatsiya**

Maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy kompetentlikning tarkibiy mazmuni, ularda kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish omillari hamda uning ta'lim sifatiga ta'siri tahlil etilgan. Kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etayotganligi ochib berilgan

**Аннотация**

В статье анализируется структурное содержание профессиональной компетентности будущих педагогов, факторы формирования и развития у них профессиональной компетентности, ее влияние на качество образования. Выявлено, что для выживания в условиях жесткой конкуренции необходимо, чтобы каждый специалист обладал профессиональной компетентностью и постоянно ее совершенствовал.

**Abstract**

The article analyzes the structural content of professional competence in future pedagogues, the factors of formation and development of professional competence in them, and its impact on the quality of education. It has been revealed that surviving strong competition requires every professional to have professional competence and to continuously improve it.

**Kalit so'zlar:** kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kompetentlik sifatleri, pedagog, rivojlantirish, mazmun, mohiyat, dastur, kadrlar salohiyati, malakali mutaxassis.

**Ключевые слова:** компетентность, профессиональная компетентность, качества компетентности, педагог, развитие, содержание, сущность, программа, кадровый потенциал, квалифицированный специалист.

**Key words:** competence, professional competence, qualities of competence, pedagogue, development, content, essence, program, personnel potential, qualified specialist.

**KIRISH**

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy talablar va jahon standartlariga asoslanib harbiy ta'lim tizimini takomillashtirish hamda uni Respublika oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Harbiy ta'lim tizimini takomillashtirishda ta'lim va amaliyot integratsiyalashuvi darajasini oshirish, harbiy ilm-fanni yuksaltirish, milliy manfaatlar uyg'unligini ta'minlash, milliy xavfsizlik va mamlakatning iqtisodiy imkoniyatlarini inobatga olish, ularning davlat siyosati bilan bog'liqligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, harbiy ta'lim tizimini takomillashtirishga doir yuqorida keltirilgan vazifalarni hal etilishi harbiy ta'limning asosiy qonuniyatlarini ochib beradi. Bu, "o'z navbatida, oliy harbiy ta'lim muassasalari oldiga intellektual jihatdan yetuk, strategik va tahliliy fikrlashga qodir, kasbiy kompetentligi yuqori darajada shakllangan ofitserlarni tayyorlashning samarali tizimini yaratish bilan bog'liq ustuvor vazifalarni qo'yadi".

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Muayyan yo'nalishlardagi mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish, pedagogning kasbiy mahoratini takomillashtirish masalalari H.Abdukarimov, N.Azizxo'jayeva, A.Aliyev, Y.A.Axrorov, A.A.Verbitskiy, R.H.Jo'rayev, B.R.Jo'rayeva, J.G'.Yo'ldoshev, S.M.Markova, G.M.Maxmutova, A.A.Hamidov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

B.Z.To'rayev tadqiqotida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni, avvalo, maqsadning qo'yilishi, vazifalar va tamoyillar bilan belgilanishi hamda jarayon asosida ta'lim mazmuni yotishi qayd etilgan [1].

To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish va tahliliy qiyoslash, tizimli yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

Oliy harbiy ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayon o'ziga xos ko'rinish sifatida quyidagi xususiyatlar bilan ifodalanadi: - ustav talabiga hamda jangovar tayyorlikni uzluksiz oshirib borish manfaatlariga muvofiqligi; xizmat faoliyati bilan uzviy bog'liqligi; shaxsiy tarkibning faoliyat birligi; nazariy va amaliy tayyorgarligi uzviyligi; samarali texnik ta'minot; o'quv-tarbiyaviy ishlarning jangovarlikka yo'naltirilib tashkil etilishi; yaxlit individual va jamoaviy tayyorgarlikning yo'lga qo'yilganligi; jarayonning ko'p bosqichli xarakterga egaligi; jarayonning amalga oshirilishida boshliqlarning yetakchiligi.

Harbiy-pedagogik jarayonning qonuniyati faoliyat sharoitida bo'lajak ofitserlarning harbiy va kasbiy tayyorgarligi jarayonini modellashtirish hisoblanadi.

Harbiy ta'limning to'g'ri tashkil etilishi ta'lim va tarbiya mazmunining boyishiga va rivojlanishiga asos bo'lib yetuk harbiy mutaxassislar zahirasi takomillashtiradi. Ushbu jarayon harbiy xizmatchilarning professional tayyorgarligi, boshliq va buysunuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning to'g'ri tashkil etilganligi bilan izohlanadi.

"Mudofaa sohasi uchun harbiy pedagog kadrlarni tayyorlashda quyidagi xususiyatlar mavjud: ommaviy ta'lim muassasalaridan farqli bo'lajak ofitser hayotini tashkillashtirish modeli ishlab chiqiladi va tatbiq etiladi, harbiy pedagog shaxsini ijodiy xususiyatlarini rivojlantirishga qaratilgan harbiy mehnatning o'zgacha tarkibi ustida izlanadi hamda uning faoliyatining yangi usullari va vositalari sinalladi".

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Mudofaa sohasida bo'lajak harbiy pedagoglar tayyorlanishida quyidagi komponentlar mavjud:

- maqsad va vazifalarning to'g'ri aniqlash, ishni muayyan vaziyatdan kelib chiqqan xolda rejalashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- tinglovchi va kursantlarning o'quv, ilmiy va tarbiyaviy yo'nalishlardagi bilimlarini oshirishga doir samarali metodikani ishlab chiqish;
- ta'lim berish jarayonida nazariya va amaliyot birligiga, tizimlilik va izchillikka rioya qilish;
- ta'lim jarayonida ta'lim oluvchilarning ruhiy xolati, bilim darajasi, millati, madaniyati, hayoti, an'ana va urf-odatlarini, mentalitetini inobatga olish;
- psixologik-pedagogik fanlarini o'rganish, etnopedagogika va etnopsixologiya asoslarini o'zlashtirish;
- kursant va tinglovchilarning shaxslararo muloqot motivatsiyasini rivojlantirish .

Harbiy-pedagogik yo'nalishning asosiy komponentlarida pedagogning maqsad, munosabat, intilish, hissiy ta'sir, ideallari va e'tiqodlari tizimidan iborat ekanligi aniqlandi. Ushbu komponentlar pedagogning hayotiy munosabatlari, ideallari, pozitsiyalari tizimi hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan tarkibiy qismlar harbiy pedagogning pedagogik faoliyati natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

E.Skubitskiyning tadqiqotida "harbiy pedagoglarning pedagogik tayyorgarligi samaradorligini taminlaydigan quyidagi tashkiliy-pedagogik shartlar aniqlangan: harbiy pedagoglarni harbiy universitetdagi pedagogik faoliyat jarayoniga moslashtirish; pedagoglarning pedagogik tayyorgarlikka bo'lgan motivatsiyasini va ofitserlar o'rtasida o'z-o'zini tarbiyalash faoliyatiga tayyorligini rivojlantirish; harbiy instruktorlar uchun pedagogik tayyorgarlikning tarkibiy-funksional modelini ishlab chiqish; harbiy pedagoglarning pedagogik tayyorgarligi uchun foydali didaktik yordam yaratish; xodimlarning o'qitish uchun kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan vakolatlarni egallashi" [2].

Pedagogik jarayon quyidagi mezonlar bilan tavsiflanadi: ongli maqsadga erishish uchun amalga oshiriladigan pedagog va kursantlar o'zaro munosabatlarning maqsadga yo'nalganligi; kursantlarning fikrlash faolligi; vazifalarni bajarishdagi ishtiroki; kursantlar harbiy-kasbiy bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarini yaratishni ko'zda tutuvchi vaziyat.

X.Xasanbayev tadqiqotida bo'lajak harbiy pedagog kadrlar quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozimligi keltirilgan [3]:

Birinchi tomondan: harbiy boshqaruv asoslarini o'zlashtirgan; muhim qarorlarni qabul qilish va ularni samarali amalga oshirishga qodir; davlat miqyosida fikrlay oluvchi; harbiy-siyosiy va harbiy-strategik vaziyatni tahlil qilish va ularning rivojini oldindan pragnozlash metodikasini

## PEDAGOGIKA

biladigan; shaxsiy tarkibni har qanday sharoitda vazifani bajarishga safarbar qila oladigan; harbiy fan va bir necha xorijiy tilni biluvchi.

Ikkinchi tomondan: ilmiy tadqiqot metodologiyasini chuqur o'zlashtirgan, ilmiy muammo va vazifalarni to'g'ri shakllantirish hamda ularni hal etishning zamonaviy texnologiyalarini biladigan, harbiy ilmiy soha rivoji yo'lida ilmiy ishlarni muntazam olib boradigan va tashkillashtiradigan.

Harbiy pedagoglarni tayyorlashda quyidagi masalalar asosiy vazifa sifatida belgilanadi: zarur kompetensiyalarni shakllantirish; ilmiy va ilmiy-texnik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish; ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlashning yangi modelini joriy etish; xalqaro reyting talablari asosida kadrlarni tayyorlash; maxalliy va xorijiy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni tashkil etish; faol kadrlar siyosatini olib borish.

"Harbiy pedagogning umumiy va kasbiy faoliyatida psixologik va pedagogik bilimdonlig yuqori o'rin tutadi. Xususan harbiy pedagogning psixologik-pedagogik bilimi o'quv jarayonining maqsad va vazifalarini anglash, shaxning rivojlanish va shakllanishiga doir qonuniyatlarni bilishni qamrab oladi".

Bo'lajak harbiy pedagogning harbiy-kasbiy kompetentligi, kasbiy sifatlarini shakllantirish keng qamrovli va murakkab hisoblab ushbu muammoni amaliyotda ishlab chiqish va amalga oshirish pedagogik faoliyatda muvaffaqiyatlilik darajasini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak harbiy pedagogning harbiy-kasbiy kompetentligini biz professional bilimlar, kommunikativ va tashkilotchilik ko'nikmalari, o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatlari, empatiya, verbal va nonverbal o'zaro munosabatlar majmui sifatida tushunamiz.

Bo'lajak harbiy pedagoglarni tayyorlash tadqiqida biz harbiy-kasbiy tayyorgarlik samaradorligini rivojlantirish omillarini tahlil etdik. Biz bo'lajak harbiy pedagoglarni tayyorlash samaradorligini oshirishga doir quyidagi jihatlarni keltirib o'tamiz: o'quv amaliyoti davrida kursantning mutaxassis sifatidagi harbiy-kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonini amalga oshirish; o'rganilayotgan bilimlar sohasidagi ta'lim texnologiyalarining xususiyatlarini aniqlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish; harbiy pedagoglarga yuklatiladigan vazifalar hisobga olingan holda bo'lajak harbiy pedagoglarni tayyorlash texnologiyalarini qiyosiy tahlil qilish va qo'llash; harbiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadida mavjud ta'lim tizimining xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv amaliyotiga harbiy pedagoglarni tayyorlashning yangi texnologiyalarini joriy etish.

Bo'lajak harbiy pedagogning yuksak pedagogik psixologik bilimga egaligi uning harbiy bilim yurtidagi pedagogik jarayon mohiyatini tushunishi, ta'lim samaradorligini oshirish omillarini aniqlash va undan to'g'ri foydalanish imkoniyati, ta'lim - tarbiya, usul, tamoyil, shakl va vositalarni to'g'ri tanlashi hamda samarali qo'llay olish imkoniyatini yaratadi.

Pedagogning asosiy sifatlaridan biri bu, pedagogik jarayonning ahamiyatli tashkil etuvchisi sanaladi. Pedagogik jarayon bu "pedagog-kursant" tizimi holatining almashishidir. Mazkur tizimning amal qilishi asosida pedagog vakursant o'rtasida faoliyat almashish yotadi, kursantlarning faoliyatini tashkil etish esa, pedagog faoliyati predmeti hisoblanadi<sup>[4]</sup>.

Pedagog va kursant jarayon subyektlari hisoblanadilar, ammo yetakchi rol aynan pedagogga tegishli, chunki u kursantlarning ijtimoiy tajribani o'zlashtirishlarida ongli faoliyatning tashkilotchisi hisoblanadi. Shu tariqa, pedagog va kursantlar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy tajriba va kursantlarning o'zlari o'rtasida bog'lovchi bo'g'in, ko'priks hisoblanadi.

### XULOSA

Pedagogik yondashuv asosida mashg'ulotlarni sifatli va samarali tashkil etish bevosita zamonaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanishga bog'liq bo'lib bunda dars mashg'ulotlarida kompyuter texnologiyalari, ko'rgazmali va simulyatsiya uskunalari kabi innovatsion texnik o'qitish vositalarini qo'llash natijadorlikni oshiradi.

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib shuni ta'kidlashimiz zarurki bo'lajak harbiy pedagoglarning harbiy-kasbiy kompetentligini shakllantirish, "kasbiy ijodkorligini rivojlantirish uchun oliy ta'lim muassasalarida ularning kasbiy va shaxsiy kamolotini ta'minlash maqsadida zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, mutaxassislik kasbiy kompetentligi va ijodkorligini rivojlantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish lozim". Bo'lajak harbiy pedagoglarning harbiy-kasbiy kompetentligi amaliy, psixologik, metodik tadqiqotchilik bilimlar bilan boyib boradi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. To'rayev B.Z., Muqimova G.X. Ta'limda kompetentli yondashuv: o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish. // «O'zbekiston oliy ta'lim tizimida kadrlar resurslarini boshqarish va rivojlantirish» mavzusidagi Respublika seminari materiallari. - T: «Iste'dod» jamg'armasi, TDPU. 2014. –52-b.
2. Alimardonov Z.SH. O'quv jarayonida harbiy xizmatchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish // Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye. Toshkent, 2017, №4. B. 25. 24-29 b.
3. Xasanbayev X.X. Mudofaa sohasida harbiy pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish: Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Chirchiq, 2023. – B.21
4. Raximov Z.T. Pedagogik kompetentlik ta'lim jarayoni rivojlanishining muhim omili sifatida //Sovremennoye obrazovaniye. – 2019. – №. 7 (80). – S. 3-8
5. Muqimov B.R. Forming Communicative Competence of Technical Higher Education Institution Students by Innovative Means // Eastern European Scientific Journal. – Germany, 2019. – № 4. – P. 410-412.
6. R.W. WHITE Motivaton reconsidered: the concept of competence. [https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/?term=WHITE+RW&cauthor\\_id=13844397](https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/?term=WHITE+RW&cauthor_id=13844397)
7. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria-Virginia, USA: ASCD, 2014. –R. 4. (Innovatsion ta'lim texnologiyalari. / Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: «Sano standart», 2015.)